



TOSHTEMIROV ELYOR NURALIYEVICH

ADCHTI, “Professor G‘.M.Hoshimov
nomidagi ingliz tili
amaliyoti kafedrası” dotsenti
e-mail: tostemiroveler@gmail.com

INGLIZ TILI MAQOL VA MATALLARIDA ANTONIMLIK FENOMENI VA ULARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada ingliz tili maqol va matallarida antonimlik hodisasining lingvistik, semantik hamda lingvokulturologik jihatlarini ilmiy asosda tahlil qilinadi. Tadqiqotda antonim birliklarning paremiologik birliklar tarkibida qo‘llanish xususiyatlari, ularning semantik oppozitsiya hosil qilishdagi o‘rni hamda badiiy-estetik va pragmatik funksiyalari yoritilgan. Xususan, ingliz maqollarida antonimlar orqali qarama-qarshilik, obrazlilik, ritmik uyg‘unlik va didaktik mazmunning shakllanishi misollar yordamida izohlanadi. Shuningdek, antonimlikning xalq tafakkuri, milliy-madaniy qadriyatlar va axloqiy me‘yorlarni ifodalovchi muhim stilistik vosita sifatidagi ahamiyati ochib beriladi. Tahlil natijalariga ko‘ra, ingliz tili maqol va matallarida antonimlik hodisasi paremiologik birliklarning semantik va pragmatik tuzilishida markaziy o‘rin egallashini ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalari paremiologik birliklarda antonimlarning nafaqat til hodisasi, balki lingvokulturologik va kommunikativ vosita sifatida ham muhim o‘rin tutishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: antonimlik, maqol, matal, paremiologiya, frazeologik birlik, semantika, lingvokulturologiya, stilistika, kontrast, oppozitsiya.

Annotation. This article analyzes the linguistic, semantic and linguocultural aspects of the phenomenon of antonymy in English proverbs and sayings on a scientific basis. The study highlights the features of the use of antonymic units in the structure of paremiological units, their role in creating semantic opposition, and their artistic, aesthetic and pragmatic functions. In particular, the formation of opposition, imagery, rhythmic harmony and didactic content through antonyms in English proverbs is explained with the help of examples. The importance of antonymy as an important stylistic tool expressing folk thinking, national-cultural values and moral norms is also revealed. According to the results of the analysis, the phenomenon of antonymy in English proverbs and sayings occupies a central place in the semantic and pragmatic structure of paremiological units. The results of the study show that antonyms in

paremiological units play an important role not only as a linguistic phenomenon, but also as a linguocultural and communicative tool.

Keywords: antonymy, proverb, saying, paremiology, phraseological unit, semantics, linguoculturology, stylistics, contrast, opposition.

Kirish. Til insoniyat tafakkuri, madaniyati va tarixiy tajribasining eng muhim ifoda vositalaridan biri hisoblanadi. Har bir xalqning milliy qadriyatlari, dunyoqarashi va hayotiy tajribasi til orqali, ayniqsa, xalq og'zaki ijodi namunalari orqali namoyon bo'ladi. Shu jihatdan maqol va matallar xalqning asrlar davomida shakllangan ma'naviy merosi, ijtimoiy tajribasi va axloqiy qarashlarini mujassamlashtiruvchi muhim paremiologik birliklar sanaladi. Ular ixcham shaklda chuqur mazmunni ifodalashi, obrazlilik va ta'sirchanligi bilan tilshunoslik tadqiqotlarida alohida ahamiyat kasb etadi.

Ingliz tili maqol va matallarida badiiy-estetik ta'sirchanlikni yuzaga chiqaruvchi muhim vositalardan biri antonimlik fenomenidir. Antonimlar bir-biriga qarama-qarshi ma'noli til birliklari bo'lib, nutqda kontrast hosil qilish, fikrni kuchaytirish hamda obrazlilik yaratish vazifasini bajaradi. Ayniqsa, maqol va matallarda antonimik birliklarning qo'llanishi xalqning hayotiy tajribasi va falsafiy qarashlarini yorqin ifodalashga xizmat qiladi. Qarama-qarshilik asosida qurilgan bunday paremiologik birliklar inson tafakkurining universal xususiyatlarini ham aks ettiradi.

Zamonaviy tilshunoslikda antonimlik masalasi semantika, stilistika, frazeologiya va lingvokulturologiya doirasida keng tadqiq qilinmoqda. Biroq antonimlarning aynan ingliz maqol va matallaridagi lingvokulturologik hamda pragmatik xususiyatlarini o'rganish dolzarb ilmiy muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Shu sababli mazkur tadqiqot ingliz tili paremiologik birliklarida antonimlikning semantik-stilistik vazifalarini aniqlash hamda ularning milliy-madaniy mazmunini yoritishga qaratilgan.

Tadqiqotning maqsadi ingliz tili maqol va matallarida antonimlik fenomenining qo'llanish xususiyatlarini tahlil qilish, antonimik birliklarning semantik va stilistik vazifalarini aniqlash hamda ularning lingvokulturologik ahamiyatini ochib berishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili. Tilshunoslikda semantik munosabatlar tizimi til birliklarining o'zaro ma'no aloqalarini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ana shunday semantik munosabatlardan biri antonimlik hodisasi bo'lib, u bir-biriga qarama-qarshi ma'noni ifodalovchi til birliklari o'rtasidagi munosabatni anglatadi. Antonimlik tilning leksik-semantik tizimida muhim o'rin egallaydi va nutqning ta'sirchanligi, obrazlilik hamda ekspressivligini oshirishda faol xizmat qiladi. Ayniqsa, badiiy matnlar, maqol va matallar, frazeologik birliklar tarkibida antonimlar keng qo'llanilib, fikrni kontrast asosida ifodalash imkonini yaratadi.

"Antonim" termini yunoncha *anti* — "qarshi" va *onyma* — "nom" so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, qarama-qarshi ma'noli birlik degan ma'noni bildiradi. Tilshunos olimlarning fikriga ko'ra, antonimlar bir xil predmet yoki hodisaning qarama-qarshi belgilarini ifodalovchi til birliklari hisoblanadi. Arnold I. V. antonimlarni "bir-biriga zid ma'noni ifodalovchi, ammo umumiy semantik asosga ega bo'lgan birliklar" sifatida tavsiflaydi [1, 56]. Vinogradov V. V. esa antonimlikni tilning badiiy va uslubiy imkoniyatlarini kuchaytiruvchi muhim semantik hodisa sifatida baholaydi [8, 17].

Antonimlar masalasi jahon va o'zbek tilshunosligida ko'plab olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Rus tilshunosligida antonimlik hodisasi leksik-semantik munosabat sifatida keng o'rganilib, antonimlarning strukturaviy va funksional xususiyatlari tahlil qilingan. O'zbek tilshunosligida ham bu masalaga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan bo'lib, antonimlarning

semantik tabiati, uslubiy imkoniyatlari va nutqdagi vazifalari yoritilgan. Tadqiqotchilar antonimlarni tilning mantiqiy va estetik imkoniyatlarini namoyon qiluvchi vosita sifatida baholaydilar.

Ilmiy manbalarda antonimlarning bir necha turlari ajratiladi. Jumladan, leksik antonimlar, kontekstual antonimlar hamda frazeologik antonimlar mavjudligi qayd etiladi. Leksik antonimlar til tizimida doimiy qarama-qarshi ma’noga ega birliklar hisoblanadi (masalan: *katta – kichik*, *yaxshi – yomon*). Kontekstual antonimlar esa muayyan matn yoki nutq jarayonida qarama-qarshi ma’no kasb etadi. Frazeologik antonimlar esa turg’un birikmalar tarkibida namoyon bo‘lib, obrazli ifoda vositasi sifatida xizmat qiladi.

Shuningdek, antonimlar badiiy uslubda kontrast yaratish, qahramon xarakterini ochib berish, voqea-hodisalarni taqqoslash va muallifning estetik munosabatini ifodalashda muhim vosita sanaladi. Shoir va yozuvchilar antonimlardan foydalanish orqali matnning emotsional-ekspressiv ta’sirini kuchaytiradilar. Shu jihatdan antonimlik hodisasi nafaqat semantik, balki stilistik kategoriya sifatida ham alohida ahamiyatga ega.

Yuqorida aytilganidek, antonimlik hodisasi faqat leksik birliklar doirasida emas, balki frazeologik birliklar, paremiologik vositalar hamda matn sathida ham namoyon bo‘ladi. Shu sababli zamonaviy tilshunoslikda antonimlikni semantika, stilistika, pragmatika va lingvokulturologiya bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganish tendensiyasi kuchaymoqda.

Lingvokulturologik nuqtai nazardan antonimlik milliy tafakkur va madaniy qadriyatlarni ifodalashga xizmat qiladi. Har bir xalqning paremiologik fondida yaxshilik-yomonlik, boylik-kambag‘allik, mehnat-dangasalik, birlik-bo‘linish kabi universal oppozitsiyalar aks etadi. Bu esa antonimlikning nafaqat lingvistik, balki madaniy-falsafiy hodisa ekanligini ko‘rsatadi.

Demak, antonimlik tilning semantik tizimida muhim o‘rin egallovchi, nutqning obrazlilik va ekspressivligini ta’minlovchi hamda xalq tafakkurini aks ettiruvchi murakkab lingvistik hodisa hisoblanadi. Ayniqsa, maqol va matallarda antonimlar xalq donishmandligi va hayotiy tajribasini ta’sirchan shaklda ifodalashga xizmat qiluvchi muhim stilistik vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Tahlil natijalari. Ingliz tili maqol va matallari xalqning ko‘p asrlik hayotiy tajribasi, ijtimoiy qarashlari va axloqiy qadriyatlarini o‘zida mujassamlashtirgan paremiologik birliklar hisoblanadi [4, 78]. Ushbu birliklarning semantik tuzilishida antonimlik hodisasi muhim o‘rin egallaydi. Antonimlar maqollarda qarama-qarshi ma’nolarni ifodalash orqali fikrning aniqligi, ta’sirchanligi va obrazlilikini kuchaytiradi. Ayniqsa, ingliz maqollarida antonimik birliklar hayotiy voqelikni kontrast asosida tasvirlash, axloqiy xulosalarni umumlashtirish hamda pragmatik maqsadni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Semantik jihatdan antonimlik maqollarda oppozitsion munosabatni yuzaga keltiradi. Bunday oppozitsiyalar inson tafakkuridagi “yaxshi – yomon”, “boy – kambag‘al”, “aqlli – nodon”, “birlik – bo‘linish” kabi universal tushunchalarni ifodalashga yordam beradi. Qarama-qarshilik asosida qurilgan semantik struktura esa maqolning mazmunini yanada chuqurroq va esda qolarli qiladi.

Ingliz maqollarida antonimlikning eng muhim semantik xususiyatlaridan biri kontrast hosil qilishdir. Qarama-qarshi ma’nolar yordamida voqea yoki hodisaning mohiyati aniqroq ochib beriladi. Masalan: “Easy come, easy go.”. Ushbu maqolda *come* va *go* antonimik birliklari moddiy boylik yoki omadning beqarorligini ifodalaydi. Semantik jihatdan qarama-qarshilik harakatning boshlanishi va tugashini bildirib, hayotiy tajriba umumlashtiriladi. Yoki: “United we stand, divided we fall.” Bu maqolda ikki juft antonim — *united – divided* hamda *stand – fall* qo‘llangan. Mazkur antonimlar birlik va bo‘linishning jamiyat hayotidagi oqibatlarini kontrast asosida ifodalab, maqolning didaktik mazmunini kuchaytiradi. Shu orqali antonimlar semantik

markaz vazifasini bajaradi.

Statistik ma’lumotlarga ko’ra ingliz tili maqol va matallarida antonimlik hodisasi paremiologik birliklarning semantik va pragmatik tuzilishida markaziy o’rin egallashini ko’rsatadi. Tadqiqot davomida ko’p o’rin egallagan kontrast funksiyasi antonimlarning maqol mazmunini kuchaytiruvchi asosiy stilistik vosita ekanligini tasdiqlaydi. Qarama-qarshi tushunchalar asosida qurilgan semantik oppozitsiyalar inson tafakkurida voqea-hodisalarni qiyoslash orqali anglash mexanizmini faollashtiradi. Shu sababli antonimlar maqollarning ta’sirchanligi, obrazlilik va esda qolarli bo’lishida muhim rol bajaradi.

Baholovchi semantikaning kontrast funksiyasidan kamroq o’rin egallashi esa ingliz maqollarining didaktik va tarbiyaviy xarakterga ega ekanligini ko’rsatadi. Antonimlar orqali yaxshilik-yomonlik, foyda-zarar, aqllilik-nodonlik kabi axloqiy oppozitsiyalar ifodalanib, xalqning ijtimoiy tajribasi umumlasihtiriladi. Bu holat paremiologik birliklarning nafaqat kommunikativ, balki aksiologik vazifani ham bajarishini tasdiqlaydi.

Antonimlarning struktur jihatdan tahlili natijasida leksik antonimlarning ustunligi kuzatildi. Bu holat maqollarning qisqa, ixcham va universal semantik model asosida qurilishi bilan izohlanadi. Leksik antonimlar til tizimida tayyor oppozitsion juftlik sifatida mavjud bo’lgani sababli maqolning mazmunini tez va aniq ifodalash imkonini beradi. Kontekstual antonimlarning 24 foizni tashkil etishi esa antonimlikning faqat lug’aviy emas, balki nutqiy hodisa sifatida ham namoyon bo’lishini ko’rsatadi. Frazologik antonimlarning nisbatan kamligi esa bunday birliklarning murakkab semantik struktura bilan bog’liqligi bilan izohlanadi.

Lingvokulturologik tahlil natijalari ingliz xalqining milliy mentalitetida mehnatsevarlik (28%), birlik va hamjihatlik (24%) hamda donolik (20%) konseptlari ustuvor ahamiyat kasb etishini ko’rsatdi. Bu konseptlar ingliz xalqining tarixiy taraqqiyoti, pragmatik dunyoqarashi va ijtimoiy qadriyatlar bilan chambarchas bog’liqdir. Ayniqsa, “No pain, no gain”, “United we stand, divided we fall” kabi maqollarda antonimlar xalqning hayotiy falsafasini kontrast asosida ifodalab, muhim axloqiy xulosalarni shakllantiradi.

Shuningdek, statistik natijalar antonimlikning nafaqat semantik hodisa, balki stilistik va lingvokulturologik kategoriya ekanligini ham ko’rsatadi. Antonimlar maqol tarkibida badiiy-estetik ta’sirchanlikni kuchaytirish, implitsit ma’no hosil qilish va pragmatik maqsadni amalga oshirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan antonimlik paremiologik birliklarning semantik yadrosini tashkil etuvchi muhim til hodisasi sifatida namoyon bo’ladi.

Demak, olib borilgan statistik va ilmiy tahlillar ingliz maqol va matallarida antonimlik fenomeni xalq tafakkuri, madaniy qadriyatlar va estetik qarashlarini aks ettiruvchi muhim lingvistik vosita ekanligini ilmiy jihatdan asoslab beradi.

MUHOKAMA. Ingliz maqollarida antonimlik ko’pincha baholovchi semantikani ifodalaydi. Ya’ni antonimlar orqali ijobiy va salbiy hodisalar qiyoslanadi. Masalan: “Better late than never.” Bu maqolda *late* va *never* birliklari qarama-qarshi qo’yilib, harakatning kech bo’lsa ham amalga oshirilishi umuman bajarilmaganidan afzal ekanligi ta’kidlanadi. Semantik jihatdan “mavjudlik” va “yo’qlik” oppozitsiyasi yuzaga keladi.

Shuningdek, antonimlar maqollarda umumlasihtiruvchi falsafiy ma’no hosil qiladi. Bunday maqollarda qarama-qarshi tushunchalar hayotning murakkab va ziddiyatli tabiatini aks ettiradi. Masalan: “Many are called, but few are chosen.” Bu yerda *many* – *few* antonimlari miqdoriy oppozitsiyani yuzaga keltirib, insonlarning imkoniyat va natija o’rtasidagi tafovutini ifodalaydi.

Antonimlikning yana bir semantik xususiyati maqolda implitsit ma’no hosil qilishidir. Ko’pincha antonimlar nafaqat ochiq qarama-qarshilikni, balki yashirin falsafiy mazmunni ham ifodalaydi. Masalan: “Speech is silver, silence is golden.” Mazkur maqolda *speech* va *silence*

birliklari qarama-qarshi qo‘yilgan bo‘lsa-da, asl semantik markaz nutq va sukutning qadri haqidagi axloqiy xulosada mujassamlashgan. Bu yerda sukut donolik va mulohazalilik ramzi sifatida talqin qilinadi.

Ingliz maqollarida antonimlar ko‘pincha binar semantik model asosida tashkil topadi. Bunday modelda ikki qarama-qarshi tushuncha bir semantik maydon ichida o‘zaro bog‘liq holda qo‘llanadi. Natijada maqolning mazmuniy yaxlitligi va mantiqiy izchilligi ta‘minlanadi. Masalan: “No pain, no gain.” Bu maqolda *pain* va *gain* birliklari mehnat va natija o‘rtasidagi sabab-oqibat munosabatini ifodalaydi. Qarama-qarshi semantik birliklar inson hayotidagi muhim qonuniyatni umumlashtirishga xizmat qilmoqda.

Bundan tashqari, antonimlar maqollarda xalqning axloqiy qadriyatlarini badiiy shaklda ifodalashga xizmat qiladi. Yaxshilik-yomonlik, aqllilik-nodonlik, mehnat-dangasalik kabi universal oppozitsiyalar xalqning ijtimoiy va madaniy qarashlarini aks ettiradi. Masalan: “A wise man changes his mind, a fool never will.” Bu maqolda *wise* – *fool* antonimlari insonning aqliy va axloqiy fazilatlarini qarama-qarshi qo‘yish orqali tarbiyaviy mazmun hosil qilgan.

Lingvokulturologik jihatdan ham antonimlar ingliz xalqining milliy mentaliteti va qadriyatlarini aks ettiradi. Ingliz maqollarida mehnatsevarlik, vaqtni qadrlash, pragmatik fikrlash va individual mas‘uliyat kabi tushunchalar antonimik qarama-qarshiliklar orqali ifodalanadi. Bu esa antonimlarning nafaqat til birligi, balki madaniy konseptlarni ifodalovchi vosita ekanligini ko‘rsatadi.

XULOSA. Demak, ingliz maqollarida antonimlikning semantik xususiyatlari qarama-qarshilik, kontrast, baholovchi mazmun, falsafiy umumlashtirish va implitsit ma‘no yaratish bilan xarakterlanadi. Antonimlar maqolning semantik yadrosini tashkil etib, uning badiiy-estetik hamda pragmatik ta‘sirchanligini oshirishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Arnold I. V. The English Word. – Moscow: Higher School Publishing House, 1986.
2. Kunin A. V. English Phraseology. – Moscow: Vysshaya Shkola, 1996.
3. Lakoff George va Johnson Mark Metaphors We Live By. Chicago: University of Chicago Press, 1980.
4. Mieder Wolfgang. Proverbs: A Handbook. – Westport: Greenwood Press, 2004.
5. Nida Eugene Componential Analysis of Meaning. – The Hague: Mouton, 1975.
6. Toshtemirov E.N. Antonymy of phraseological units: formal and semantic similarity as criterion of opposition// Results of national scientific research. Scientific-methodical journal. Volume 1, Issue 6. – Tashkent, 2022. – P. 390-394.
7. Toshtemirov E.N. Semantic and formal criteria of determining the oppositions between lexical and phraseological units in English and Uzbek// Международный научный журнал «Новости образования: исследование в XXI веке» №27(100), часть 1. Ноябрь. – М., 2024. – С. 52-54.
8. Vinogradov V. V. Lexicology and Lexicography. – Moscow: Nauka, 1977.
9. Маматов А. Ўзбек тили фразеологияси. Тошкент, 2019.
10. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992.